XARAKTERNING IRODAVIY SIFATLARINING METODOLOGIK VA NAZARIY MUAMMOLARI

Masharipova Shaxrizada Jumaboy qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.21368004

Annotatsiya: Mazkur maqolada xarakterning irodaviy sifatlarini o‘rganishning metodologik va nazariy muammolari tahlil qilingan. Tadqiqotda iroda va xarakter o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, irodaviy sifatlarning shaxs rivojlanishidagi o‘rni hamda ularni tadqiq etishda qo‘llanilayotgan zamonaviy metodologik yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, mavjud nazariy yondashuvlarning afzalliklari va cheklovlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari irodaviy sifatlarni rivojlantirishga oid ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.
Kalit so'zlar: xarakter, irodaviy sifatlar, iroda, metodologiya, nazariy yondashuv, shaxs psixologiyasi, o‘zini-o‘zi boshqarish, motivatsiya, shaxs rivojlanishi, psixologik tadqiqot.

Аннотация: В статье рассматриваются методологические и теоретические проблемы изучения волевых качеств характера. Анализируются взаимосвязь характера и воли, роль волевых качеств в развитии личности, а также современные методологические подходы к их исследованию. Проведен сравнительный анализ взглядов отечественных и зарубежных ученых, выявлены преимущества и ограничения существующих теоретических концепций. Полученные результаты могут служить теоретической основой для дальнейших исследований в области психологии личности.
Ключевые слова: характер, волевые качества, воля, методология, теоретический подход, психология личности, саморегуляция, мотивация, развитие личности, психологические исследования.

Abstract: This article examines the methodological and theoretical problems related to the study of volitional character traits. It analyzes the relationship between character and will, the role of volitional qualities in personality development, and contemporary methodological approaches to their investigation. The study presents a comparative analysis of the views of domestic and foreign psychologists, identifying the strengths and limitations of existing theoretical frameworks. The findings provide a theoretical foundation for further research on the development of volitional character traits in modern psychology.
Keywords: character, volitional qualities, willpower, methodology, theoretical approach, personality psychology, self-regulation, motivation, personality development, psychological research.

KIRISH: Xarakter va uning xususiyatlarini shakllantirish muammosi – bizning psixologiya fanining ham juda muhim masalalaridan biridir. Ayniqsa, yosh avlodni shakllantirishda, ularga bilim berishda xarakter xususiyatlarini hisobga olish muammosi psixologlarni ko‘pdan qiziqtirib kelgan. SHuningdek, xarakterning rivojlanishidagi psixologik mexanizmlar, ularning psixologik asoslari haqidagi tortishuvlar psixologlarning e’tiboridan chetda qolmadi. Ular xarakter shakllanishining tabiatini tushunishda dialektik materialistik nuqtai nazaridan yondashadilar. Bu borada E.G‘. G‘oziev, M.G.Davletshin, V.A.Tokareva, M.M.Mamatov kabi psixologlar tadqiqot ishlarini olib borganlar [28, 29, 21,

16, 21]. V.A.Tokareva o‘zining “Talaba shaxsining ma’naviy rivojlanishi psixologiyasi” nomli monografiyasida talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning psixologik jihatlariga keng to‘xtaladi [16, 17]. Uning fikricha, ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish dolzarb muammo bo‘lib, kelgusidagi shaxs kamoloti, uning xarakter xususiyatlarini tarkib toptirishdagi ahamiyati juda kattadir. Haqiqatdan ham, inson ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol shaxs bo‘lib shakllansa, jamiyatimiz taraqqiyotiga katta hissa qo‘shadi, o‘z-o‘zidan inson xarakterining axloqiy-ma’naviy jihatdan etukligi - bu xarakter xususiyatining belgisidir, modomiki shunday ekan, olimaning keltirgan har bir misollari inson xarakteri shakllanishi bilan yonma-yon boradi. Muallif shunday fikr bildiradiki, talabada ma’naviy rivojlanishning jadalligi va yo‘nalishi oliy o‘quv yurtida o‘qish davrida o‘zgarib boradi. Bu o‘rinda V.A.Tokareva talaba xarakterining intellektual sifatlari haqidagi fikrlarini ma’naviy sifatlar bilan bog‘lab tushuntirishga harakat qiladi. SHuningdek, psixolog M.M.Mamatov o‘zining “Inson xarakteri va uning shakllanishi” nomli asarida milliy xarakter va uning xususiyatlarini har tomonlama chuqur tahlil qiladi [12]. U xarakter haqidagi chet el va sobiq ittifoq psixologlarining fikrlarini tahlil qilib, shunday ta’rif beradi: “Xarakter deb shaxsda ijtimoiy muhit va ta’lim-tarbiya ta’sirida tarkib topib, uning xatti-harakatlari va xulq-atvorida namoyon bo‘ladigan barqaror individual xususiyatlarga aytiladi”.

M.M.Mamatov xarakterning xislatlari paydo bo‘lishi haqida gapirib, shunday deydi: “Xarakter xislatlari konkret tarixiy sharoitda ijtimoiy munosabatlarining taraqqiyoti bilan bog‘liq holda yuzaga keladi va o‘zgarib boradi. Har bir davr ijtimoiy tuzum manfaatlariga mos bo‘lgan xarakter xislatlarini yaratadi, ya’ni har bir davrning “o‘z qahramonlari” bo‘ladi [21]. Haqiqatan ham olimning bu fikri juda ham ahamiyatlidir. Biz tarixdan bilamizki, har bir davrda shu tuzumga mos bilimli, ishbilarmon, botir, matonatli odamlari bo‘lgan, ammo tuzum o‘zgarishi bilan ularning ahamiyatliligi e’tibordan chetlashgan, hattoki jazolangan.

M.M.Mamatov xarakterning asosiy xislatlarini bir necha guruhga ajratib o‘rganishga harakat qiladi [21]. Uning fikricha, xarakterning muhim xususiyatlari quyidagilar:

1. Iroda bilan bog‘liq bo‘lgan xarakter xislatlari.

Bu xususiyatlar qat’iyatlilik, barqarorlik, sabotlilik, (matonatlilik), intizomlilik kabi sifatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Irodaviy xususiyatlar xarakterning muhim xususiyati bo‘lib, irodaviy jarayonda u to‘la namoyon bo‘ladi. Hayotda ko‘pincha “xarakteri kuchli”, “xarakteri bo‘sh” kabi iboralar ishlatiladi. Bunda kishi xarakteridagi irodaviy xislatlar nazarda tutiladi. Avtor qat’iyat va barqarorlik haqida gapirib, uning yuksak ko‘rinishi murakab vaziyatlarda ham tez va ishbilarmonlik bilan asosli qarorlar qabul qilishda va uni amalga oshirishga kirishishda namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Lekin har qanday tez qaror qabul qilish yoki xatti-harakat qat’iyatlilik belgisi emas. CHunki qat’iyatli kishilar orasida kayfiyatga qarab tez, shoshqoloqlik bilan asossiz qarorga keluvchilar ham uchrashi, ularning engiltak, betayin shaxs ekanligini ko‘rsatadi.

Xarakterning barqarorligi esa, uning ichki birligida, ya’ni maqsad bilan faoliyatning mushtarakligida, ong bilan xatti-harakatning birligida ko‘rinadi. M.M.Mamatov xarakterning ma’naviy xislatlari deganda kishining axloqiy e’tiqodlarini aks ettiradigan xislatlarni tushunadi. Uning yozishicha, axloqli odam o‘z xatti-harakatlarida, intilishlari va yurish-turishida jamiyat axloq qoidalariga amal qilgan kishilardir. Haqiqatan biz yashayotgan jamiyat qonunlariga bo‘ysunib, uning ravnaqi uchun jon kuydiradigan odamlarni ma’naviyatli insonlar deymiz.

M.M.Mamatov xarakterning intellektual (aqliy) xislatlari haqida ham chuqur mulohazali fikrlarni bayon qiladi. U xarakterning intellektual xislatlari deganda tashabbuskorlik, uddaburonlik, prinsipiallik, yangilikka qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik kabi xususiyatlar majmuasini tushunadi. SHuning bilan birga u ta’kidlaydiki, bu xususiyatlar xarakterning irodaviy xislatlarini to‘la namoyon bo‘lishiga yordam beradi. Uning fikricha,

kuchli xarakterga ega bo‘lgan kishilar ko‘pincha aqliy jihatdan ham etuk bo‘ladilar. Masalan, tashabbuskorlik hamma joyda ham bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalarni hal etishda yangidan-yangi samarali yo‘l va vositalarni qidirib topishda ko‘rinadi. Tashabbuskor o‘quvchi bola masalani echilishning bitta usuli bilan qanoatlanib qolmasdan, balki yangidan–yangi usullarni topishga harakat qiladi va ko‘pincha bunga muvaffaq bo‘ladi. Bu o‘rinda xarakterning intellektual sifatlari muhim rol o‘ynaydi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, xarakter murakkab tuzilishga ega bo‘lib, u shaxs faoliyatining hamma sohalarida ham vujudga kelishi mumkin.

ASOSIY QISM: Ijtimoiy-tarixiy hamda psixologik tahlillarga ko’ra, o’quvchilarda irodaviy xususiyatlarini shakllantirish uzoq ijtimoiy taraqqiyot yo’lini bosib o’tgan ko’p qirrali va keng qamrovli tushunchadir. Kishilik jamiyatining taraqqiyot yo’lini, bosqichlarini insonlar hayoti va faoliyatini shaxsning iroda xususiyatlarisiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Ehtimol, dastlabki davrlarda iroda yoki uning xususiyatlari ko’rinishi, shakllanishi, rivojlanishi, boshqacha so’z bilan aytganda, yashash sharoitlari ta’siri va insonlarning ehtiyojlarini qondirish bilan uzviy bog’liqdir.

Insonlarda bilim va tajribaning ortib borishi, turmush tarzining o’zgarishi, o’zaro munosabatlarning takomillashuviga, o’z navbatida iroda xususiyatlari ham rivojlanib, mukammallasha borishga olib kelgan. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida odamlarni yashash uchun kurashi, insonni o’rab turgan borliqni o’rganish, ishlab chiqarish turlarining kengayishi shaxs irodaviy xususiyatlarini ko’pqirrali shakllana borishiga va rivojlanishiga imkon yaratadi.

Har qanday tabiiy(ob’ektiv), ijtimoiy(sub’ektiv) sharoitda, jamiyatning hamma sohalarida inson irodaining ijobiy xususiyatlari faoliyat turlarini ijobiy natijalar bilan yakunlangani odamlarning kundalik turmushida qaytarilib turishi va takrorlanishi ta’sirida takomilliashib, rivojlanib, mustahkamlanib boraveradi.

Ilm-fanning taraqqiyoti, borliqdagi barcha jarayonlar o’zgarib turishi kabi inson irodasi xususiyatlarining ham evolyutsion tarzda tubdan qayta qurilishiga olib kelgan. Har qanday tuzumdagi(formatsiyadagi) ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar inson irodai xususiyatlarining yangi qirralarini uzluksiz ravishda ochib boraveradi. Bu to’g’rida biz nashr qilingan ilmiy maqolalarimizda ma’lumot bayon qilganmiz. Hozirgi davrda qaysi bir sohani tahlil qilib qaramaylik, uning yuksalishini insonlar irodaining yangi qirralarini shakllantirmasdan, aslo tasavvur qilib bo’lmaydi. Xuddi shu bois, inson iroda xususiyatlarini shakllanish, rivojlanish jarayonlari, qonuniyatlari hamda psixologik mexanizmlarini o’rganish bilan psixologiya fanining juda ko’p tarmoqlari shug’ullanadi va hozirgi davrda bu soha ularning eng muhim tadqiqot ob’ektiga aylangan. Chunonchi, inson irodai xususiyatlarini shakllantirish psixologik muammo sifatida XXI asrda ham o’z dolzarbligini pasaytirganicha yo’q. SHu nuqtai nazardan, biz mazkur tadqiqot ishimizning I bobida o’quvchilar irodaining irodaviy va intellektual xususiyatlarini shakllantirish psixologik muammo sifatida tadrijiy ravishda o’rganilganligini tahlil qilgan edik.

Xorijiy psixologiya fanida iroda masalasining o’rganilishini sharhlagan bo’lsak, psixologlarning ko’pincha ikki yo’nalishda: iroda terminini talqin qiluvchi va irodani inkor qilib, shaxs terminini talqin qiluvchilarga daxldor tadqiqotlar olib borganligini guvoxi bo’lamiz.

Sobiq Ittifoq psixologiyasida irodaning tadqiq etilishini tahlil qilganimizda, psixologlarning metodologik muammolariga alohida e’tibor qaratganliklarini, ayniqsa, uning shakllanishi zaruriyati, tarixi, rivojlanish qonuniyatlari, xususiyatlari, oqibatlari, fiziologik asoslari haqida samarali izlanishlar olib borilganligini kuzatamiz. Fikrimizning tasdig’i sifatida shuni aytish mumkinki, iroda muammosini o’rganishning dastlabki davrlaridayoq(XX asrning 60-yillarida), bu sohada 4 ta doktorlik dissertatsiyasi himoya

qilingan (I.V.Straxov, N.D.Levitov, V.S.Filatov, A.G.Kovalev). Shuningdek, sobiq ittifoq psixologiyasida ishlab chiqarish jamoalaridagi insonlar irodaining xususiyatlari hamda ta'lim jarayonida o'quvchilarda iroda sifatlari shakllanishining ilmiy asoslarini tadqiq etish sohalari yetakchi o'rin egallagan.

Mamlakatimiz psixologiyasida inson irodaviy xususiyatlari shakllanishi jamiyatimiz taraqqiyotining doimo ustuvor vazifasi sifatida qarab kelinmoqda. Mantiqiy nuqtai nazardan mazkur muammoning hal qilinishi masalasiga quyidagicha tartibda yondashish maqsadga muvofiq, deb xisoblaymiz:

1. O'zbek xalq og'zaki ijodi, milliy va diniy qadriyatlarimiz aks etgan noyob manbalar, o'zbek xalq pedagogikasi va psixologiyasida inson irodaviy xususiyatlarini shakllantirish va uning ahamiyati yoritilganligi.

2. Buyuk ajdodlarimiz ta'limotida inson shaxsi va irodasining ijobiy sifatlarini rivojlantirish masalarining hal etilganligi.

3. Mamlakatimiz psixologiyasida iroda va uning xususiyatlarini shakllantirish muammosi o'rganilganligi darajasi va boshqalar.

Mamlakatimizda inson irodasini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq manbalar, ularda aks etgan qimmatli maslahatlar, nasihatlar, hayotiy tahlillar, xulosalar va tavsiyalar hozirgi davrda ham uni ilmiy asosda tarkib toptirish, rivojlantirish ko'zlangan maqsad va muddaoga erishish sohasida muhim ahamiyat kasb etadi. SHuning tasdig'i sifatida Perzidentimiz aytganidek, buyuk kelajagimizning buyuk insonlari irodasining ijobiy xususiyatlarini faqat ilmiy asosda shakllantirish mumkin.

Bu sohada mamlakatimiz psixologi E.G'ozievning mazkur psixologik kategoriyaga yondashuvi muhim axamiyat kasb etadi va original xususiyatga ega. Ularning muloxazalariga qaraganda, milliy iroda umuminsoniy (umumbashariy) irodaning negizidan kelib chiqib, aks ettirishda o'ziga xos tarzda ajralib turadi. Umuminsoniy irodaviy sifat kishilarning tabiatga, narsalarga, o'zga odamlarga, o'z-o'ziga nisbatan munosabatlarida nomoyon bo'lib, ijtimoiy shartlangan fazilatlar, xislatlar tarkibiga kiradi. Ularning bayon qilishicha, irodaning shakllanishi mikro, makro va mize muxit ta'sirida amalga oshishi bilan bir qatorda yana eng kamida ikkita omilga, mustaxkam manbaga, ya'ni shaxsning o'zini o'zi takomillashtirishiga, ma'naviy moxiyati, vositalari va ruhiy qurollaridan unumli foydalanishga bog'liq ravishda ob'ektiv va sub'ektiv tarzda kechadi. Uning ta'kidlashicha, irodaning shakllanishi keng ma'noda olib qaralganda, xayot intiqomlari, tabiat, jamiyat va biologik omillari osoyishtaligi, bir maromdaligi, dinamikligi, statikligi ko'rsatkichlari negizida amalga oshadi.

Ustoz talqiniga asoslaganda irodani tarkib toptirish jarayonining muhim omili tariqasida vaziyat (situatsiya) yetakchi rolь o'ynaydi va regulyatorlik funktsiyasini bajaradi, goxo qo'shstimul, juftdeterminator, qo'shmexanizm sifatida uzluksiz ravishda ruxiy holatlar vujudga kelib turishini ta'minlash mumkin. Vaziyatlar ekstremal (favqulodda), kazusli(tasodifiy), kauzal(sababiy) kabi ko'rinishlarga ega bo'lib, uning har qaysisi o'ziga xos xususiyatlari bilan bir-biridan muayyan darajada ajralib turadi.

1. Eksteremal vaziyatlar yo tabiiy omillar, hodisalar ta'siri, natijasi hamda mohiyatidan kelib chiqqan holda ofatlar, larzalar, tabiatning injiqliklari, mo''jizalari, dahshatli kuchlari shaklida namoyon bo'lishi , kechishi va rivojlanishidan iboratdir. Ularga nisbatan aloxida olingan shaxsning, muayyan darajada uyushgan guruh(etnik birlik) ning munosabati irodaologik xususiyatlarning shakllanishiga, barqarorlashuviga, mustahkamlashishiga zarur ob'ektiv va sub'ektiv qulay sharoitlar yaratilishiga imkoniyat yaratadi. Irodaning ijobiy xislatlari yoki uning illatlari (qusurlari), chetga og'ish(patologik) holatlari tug'ilishi jarayoni, aynan turli xususiyatli vaziyatlar mahsuli sifatida gavdalanadi.

2. Kazusli vaziyatlar inson hayoti va faoliyatiga muhim ahamiyat kasb etib, shaxsda ishonch, qat'iyatlilik, beqarorlik, mustaqillik, ta'sirga beriluvchanlik kabi xislatlar va illatlar

ustuvorligi hamda barqarorligi xaqida ma'lumot olishga puxta zamin hozirlaydi. Bunday vaziyatlarni keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan biri-bu tolerantlikning vujudga kelishi, kechishi bilan bog'liq neyrofiziologik hamda psixofiziologik mexanizmlardan iboratdir. Uni keltirib chiqaruvchi omillar, asosan ikki qutbga taalluqli bo'lib, biri tasodifiy, yondosh qo'zg'atuvchilar ta'sirida vujudga kelib tolerantlikka asoslanadi, ikkinchisi esa ichki qo'zg'atuvchilar, reaktsialar orqali ifodalanib, ko'proq sub'ektiv omillar mahsuli hisoblanadi, armonning har xil shakllarini aks ettirish funktsiyasini bajaradi. Omadlilik xuddi ruhiy hodisalarni vujudga keltiradi, shaxsning faollikka, uzluksiz xatti-harakatlari va qo'shstimul vazifasini muvaqqat bajarishga kirishishi mumkin.

3. Kauzal vaziyatning paydo bo'lishi sub'ektiv kechinmalar, omillar, manbalar negizi bilan uyg'unlashib, xilma-xil ehtiyojlar, motivlar, egoistik yoki alьtruistik pozitsialar, tub ma'nodagi fidoiylik namunasining ifodalanishi sababiy bog'liqlik determinatorlar mahsuli ustiga quriladi. Vatanparvarlik tuyg'usi shaxsni ijodiy izlanishlar sari yetaklaydi, barqaror harakatlantiruvchi kuchlarni vujudga keltiradi, puxta mehanizmlar uzluksizligini ta'minlashda ishtirok etadi. SHuningdek, qonuniyatlar ma'naviy eskirishi tufayli yangilarini ochishga intilish, nazariyalar yaratishga ishtiyoqlilik tug'ilishi ham jismoniy, ham xuquqiy shaxs oldiga istiqbol rejalarini qo'yadi va ularni amaliyotda qaror toptirish uchun faollik, sa'y-harakatlar dasturini ishlab chiqishni undan talab qiladi.

METADALOGIK QISM: Yuqoridagi yangi yondashuvni tadqiqotimizning metodologik asosi tarkibiga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda iroda xususiyatlarini shakllantirish maqsadi, bosqichlari, tarkibiy qismlari, shakllari, usullari, psixofiziologik mexanizmlari, kutilayotgan natijalar (kutilma) turli-tumanligiga qaramasdan, har qanday holatda ham milliy-madaniy, milliy-psixologik omillar, yosh xususiyatlari, shu soha rivoji va hududiy xususiyatlar ta'siriga uzviy bog'liqligi aniqlandi va shunga binoan, ularni tarkib toptirishni uyg'un holatda tashkil etish taqozo etiladi.

Biz magistrlik dissertatsiyaining I bobida bu muammolarga yetarlicha e'tibor berilmaganligini va ta'lim-tarbiya jarayonida shu kabi muammolar dolzarbligicha qolayotganligining guvohi bo'ldik.

Jamiyat taraqqiyotini belgilovchi omil hisoblangan ijodkor, faol, ishbilarmon, tadbirkor, mustaqil fikrlovchi shaxsda irodaning ijobiy xususiyatlarini shakllantirish, uni voyaga yetkazish ta'lim tizimining ustuvor vazifasi va hayotiy zarurati bo'lib qolaveradi. Bunda o'qituvchi bilan o'quvchilar irodaining psixologik xususiyatlarini o'rganish, ijobiy sifatlarini tarkib toptirish hozirgi davr o'rta mahsus ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir.

	G'oyaviy	Pragmatik	Analitik	Realistik	Labillik
Irodalilik	0,322*	-0,001	0,268*	0,264*	0,477**
Sabr-toqatlilik	0,047	0,078	0,236*	0,258*	0,092
Qat'iyatlilik	0,111	0,463**	0,309*	0,030	0,054
Tirishqoqlik	0,291*	0,384*	0,240*	0,230*	0,219*

**** p<0,01, * p<0,05.**

qilishni, e'tiqodga sodiqlikni –r=0.322, p<0,05, vaziyatlarni tahlil etuvchanlikni – r=0.322, p<0,05, voqelikka realistik nuqtai nazardan qarashga moyillikni, xolisonalikni – r=0.264, p<0,05 va fikrlashida labillikning rivojlanishiga sabab bo'lar ekan – r=0.477, p<0.01.

O'z navbatida sabr-toqatlilik esa analitik xususiyatlar, har bir amalga oshirilishi lozim bo'lgan vaziyatlarga nisbatan tahlilchan munosabatni shakllantirishni – r=0.236, p<0,05, voqea-hodisalar va ularning yechimlariga haqqoniylik nuqtai nazaridan baholashning takomillashuviga olib kelganligiga asosiy omil bo'lishi mumkin.

SHuningdek, o'quvchilardagi "qat'iyatlilik" ularni fikrlash jarayoniga xos pragmatik – r=0.446, p<0.01, analitik mulohaza yuritish (r=0.309, p<0,05) o'sishini ta'minlash imkoniga ega bo'lar ekan.

O'quvchilarda "tirishqoqlik"ning o'sishi ularning tafakkurida o'z fikriga ega bo'lishlik (r=0.291, p<0,05), muammolarga nisbatan amaliy va dalillar asosida yondashuvni (r=0.384, p<0,05), vaziyatlarga nisbatan tahlil qilish (r=0.240, p<0,05), voqea-hodisalar va atrofdagilarga nisbatan xolislik qanday bo'lsa, xuddi shunday tasavvur qilishni, bilimlarni o'zlashtirishda o'zini namoyon eta olishga (r=0.219, p<0,05) zamin yaratar ekan. Bundan shu narsa ko'rinadiki, o'quvchilar irodaida irodaviy sifatlarning o'sishi ularning aqliy rivojlanishida ijobiy o'zgarishlarga olib kelishining asosiy omili funktsiyasining bajarishi dalillandi.

Yuqoridagi empirik ma'lumotlar tahlilining ko'rsatishicha, shakllantiriruvchi eksperiment bosqichining o'zida mujassamlanuvchi psixokorrektsiya dasturini amaliyotga tatbiq qilish o'spirin o'quvchilar irodaviy va intellektual xususiyatlariga taalluqli zaif tomonlarni bartaraf etishga, ayrimlarini barqarorlashtirishga imkon tug'dirdi.

1. O'spirini o'quvchilarda irodaviy (irodalilik, sabr-toqatlilik, qat'iyatlilik, tirishqoqlik) xususiyatlarini o'rganishning natijalari orasida ishonchlilik farqlari mavjud bo'lsa-da, lekin ularning bunday ko'rinshining asosiy sababi 9sinf subьektlarining taьlim muassasasiga moslashish (adaptatsiya) jarayoni davom etayotganligi, shaxsga mustaqil ishlash uchun zarurat tug'ilishi va boshqalar.

2. 9-10sinf qontingentlarida o'spirinning taьlim tizimiga moslashib ketganligi Zeygarnik fenomeni ular tomonidan egallanganligi o'quvchilar o'zlarini shaxs sifatida namoyon etishi faollashuvini keltirib chiqarishning natijasidir.

3. 9sinf o'quvchilarida umumiy irodaviylik kuchi va irodaviy xususiyatlarining shakllanganligi ko'rsatkichini korrelyatsiya munosabatlarida ijobiy bog'lanishlar, bir-birini taqozo etuvchi omillar kuzatilmadi. Lekin bir marta "sabr-toqatlilik" bilan "qatьiyatlilik" o'rtasida teskari munosabat r= 0,542 va ishonchlilik darajasi R<0,01 kuzatildi, xolos.

1. 10sinf o'quvchilari natijalarini tahlil qilsak, unda 1-bosqichga o'xshash va farqli holatlar mavjuddir. Ularda umumiy irodaviylik qatьiyatlilikni quvvatlovchi bo'lib xizmat qilsa-da (r= 0,386 va ishonchlilik darajasi R< 0,01), biroq 1-bosqich subьektlariga o'xshash "sabr-toqatlilik" bilan "qatьiyatlilik" orasida mutanosiblik aks etmagan: r=0,470 va ishonchlilik R<0,01 qiymatga baravar.

5. 11sinf o'quvchilarida umumiy iroda kuchi "qatьiyatlilik" bilan mos ijobiy bog'lanishga ega bo'lgan bir sharoitda r=0,519 va ishonchlilik R<0,01

"sabr-toqatlilik" bilan "qat'iyatlilik" o'rtasida nomutanosib bog'lanish borligi aniqlandi, jumladan: r=0,340 va R<0,05.

6.O'quvchilar irodaviy xususiyatlaridagi sifat o'zgarishlar ularning intellektual sifatlarida ijobiy jihatlar vujudga kelishiga katta taьsir ko'rsatar ekan. Ularda "umumiy iroda kuchi"ning o'sishi, subьektlarda shaxsiy nuqtai nazarini himoya qilishni, eьtiqodga sodiqlikni – r = 0,322, R< 0,05, vaziyatlarni tahlil etuvchanlikni – r = 0,322, R< 0,05, voqelikka realistik qarashga moyillikni, xolisonalikni – r = 0,264, R<0,05 va fikrlashda moyillikning rivojlanishiga sabab bo'lar ekan. (r = 0,477, R<0,01). SHuningdek, o'quvchilardagi "qatьiyatlilik" ularni fikrlash jarayoniga xos "pragmatik" – r = 0,446, R<0,05, "analitik" mulohaza yuritish (r = 0,309, R<0,05) o'sishini taьminlashga xizmat qilishi tajriba-sinovda dalillandi.

XULOSA: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xarakterning irodaviy sifatlari shaxsning psixologik barqarorligi, maqsadga intilishi va faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Ularni o'rganishda tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan va shaxsga yo'naltirilgan metodologik yondashuvlarni uyg'unlashtirish ilmiy natijalarning

ishonchliligini oshiradi. Zamonaviy psixologiyada irodaviy sifatlarning rivojlanish mexanizmlarini aniqlash, ularni baholash mezonlarini takomillashtirish hamda ta'lim jarayoniga integratsiya qilish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –Toshkent: “O’zbekiston”, 1998. - 35 b.
2. Karimov. I.A. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: “SHarq”, 1998. – 182 b.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. –Toshkent: “O’zbekiston”,1998. -12-15 b.
4. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz.- Toshkent: “O’zbekiston”, 2001. – 432 b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: “O’zbekiston”, 2008. - 50-63 b.
6. Ananьev B.G. Problemы formirovaniya irodaa. L.: 1949. - 20-98 s.
7. Ananьev B.G. CHelovek kak predmet poznaniya. L.: LGU, 1969. - 33-80 s.
8. Andreeva I.N. Predposыlki razvitiya emotsionalьnogo intellekta. // Voprosы psixologii. 2007, - № 5. – S.57-66.
9. Andreeva I.N. Emotsionalьnыy intellekt: issledovaniya fenomena. // Psixologicheskiy jurnal, - M.: 2006. № 3. –S.78-87.
10. Andrushenko T.Yu. Psixologicheskie usloviya formirovaniya samootsenki v mladshem shkolьnom vozraste // Avtoref. dis. kand. ped. nauk. - M.: 1978. – 28-32